

FANNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

O.A.Sulaymonova

*Farg'ona viloyati pedagogik mahorat
markazi "Aniq va tabiiy fanlar
metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi*


Bugungi kunda axborot texnologiyalari kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Ushbu jarayon ta'lim tizimiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy jamiyatning asosiy talablari – XXI asr ko'nikmalariga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash, o'quvchilarning kreativ va amaliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlar ushbu maqsadlarga erishishda muhim vosita hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim olish faoliyatini samarali tashkil etishda interaktiv topshiriqlar, avtomatlashtirilgan fikr-mulohazalar va izohli yechimlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday imkoniyatlar o'quvchilarga topshiriqlarni mustaqil bajarish jarayonida qo'llanmalar orqali yo'l-yo'riq olish, xatolarini aniqlash hamda ularni to'g'rilash imkonini beradi. Natijada, o'rganish jarayoni izchil, tushunarli va samarali tus oladi.

O'quvchilarning bilimini baholash jarayonida ularning faqat yakuniy natijasigina emas, balki harakatlari, izlanishlari va muammoni hal qilishga bo'lgan urinishlari ham e'tiborga olinadi. Topshiriq to'liq bajarilmagan taqdirda ham, o'quvchining mustaqil fikrlashi, tahlil qilish yoki to'g'ri yo'lni topishga urinishlari qisman baholanishi zarur. Bu yondashuv o'quvchini rag'batlantiradi, o'z ustida ishlashga undaydi hamda o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini saqlab qoladi.

Shuningdek, zamonaviy hisoblash vositalaridan foydalanish, raqamli agentlarni o'qitish va murakkab tizimlarni modellashtirish orqali o'quvchilar real dunyo muammolarini virtual muhitda hal qilishni o'rganadilar. Simulyatsiyalar va kompyuter modellari yordamida ular ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va natijalardan xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa ularning hisoblash fikrlashini chuqurlashtiradi, tahliliy va mantiqiy tafakkurini kengaytiradi hamda muammolarni tizimli yondashuv asosida hal etish malakasini shakllantiradi.

Zamonaviy yondashuvlarga GitLab, GitHub, Padlet, Trello va Mirolar misol bo'la oladi. Ularning ishchi maydoni quyda ko'rsatib o'tilgan.



Masofaviy ta'lim sharoitida bu texnologiyalar o'quvchilarga birgalikda loyihalar ustida ishlash, g'oyalar almashish va muammolarni hamkorlikda hal etish imkonini beradi. Shunday qilib, videokonferensiya vositalari informatika ta'limida hamkorlikda o'qitish jarayonini yanada qulay, qamrovli va samarali qiladi hamda o'quvchilarni raqamli asr talablariga tayyorlashga xizmat qiladi.

References

1. Paul Long, Sarah Lawrey, Victoria Ellis Informatika va axborot texnologiyalari 10-11-sinf, Toshkent, 2023 y. 376 b.
2. Elliot Aronson, S. Patnoe (1997). Cooperation in the classroom: The jigsaw method. New York: Longman.
3. <https://docs.github.com/ru/education/manage-coursework-with-github-classroom/teach-with-github-classroom>